

**YUQORI SINF O'QUVCHILARINI MA'NAVIY AXLOQIY TARBIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISHDA OILA VA MAXALLANING O'RNI VA VAZIFALAR**

**Teshaboyev Alixo'ja Ibragimovich**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika  
universiteti. Stajyor tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilarida va yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda oila va mahallaning poli, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, mahalla tizimi, uning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish masalasiga e'tibor qaratiladi.

**Kalit So`Zlar:** Sinf, axloq, vatanparvarlik, ma'naviy muhit, tarbiya, oila, mahalla, yoshlar, jamiyat, milliy qadriyat, mafkuraviy kurash, ma'naviy tahdid, ilm-fan, tarbiya, yosh avlod

### **KIRISH**

Janiyat barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ma'naviy tahidlarni aniqlash va ularning oldini olish muhim ahamiyatga ega. Bu masalalarda bir nechta qarashlar ilgari surilgan. Ayni payitda, ma'naviy tahidlarni bartaraf etishda ma'naviy muhitni yaratish masaasiga prezident Shavkat Mirziyoeyv diqqat-etiborni qaratishi uning qanchalik dolzarb masalaligidan dalolat beradi. Jumladan, bu xususida prezident Shavkat Mirziyoeyv yoshlar o'rtasida ma'naviy muhitni shakillantirishning asosiy omillidan biri-kitob o'qishni, kitobxonlikni tashkil qilishni zarurat sifatida qarab, shunday fikrlarni aytadi: "O'zbekiston yoshlar ittifoqi Internet tizmi orqali ma'naviy targ'ibot ishlarini, jumladan, electron kitobxonliknikuchaytirish zarur. Nega deganda, biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakillanishiga beparvo qarab turolmaymiz"

### **ASOSIY QISM**

Bugungi kunda dunyodagi eng katta xavf insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzlusiz davom etayotgan mafkuraviy kurash, ijtimoiy va ma'naviy tahidlardir. Biz bundan xavotirlanamiz va xalqimizning qalbi va ongini yot mafkuraviy, axloqiy-ma'naviy tazyiqlardan muhofaza qilishga zarurat sezamiz. Kishilarni mafkuraviy-ma'naviy tazyiqlardan muhofaza qilishning yo'llari va uslublari ko'p. Ana shunday kuchli uslublardan biri bugungi kun yoshlarini har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda oila va mahallalarning roli yanada kuchaytirib borish bilan izohlaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkilotining 2017 yil 8-9 iyun kunlari Ostonada bo'lib o'tgan Sammitida so'zga chiqib, tashkilotga a'zo mamlakatlar rahbarlarini o'sib kelayotgan yosh avlod turli buzg'unchi g'oyalar va radikal guruhlarga qo'shilib ketishini oldini olishning aniq choralarini qo'llashga chaqirdi. "Asosiy e'tiborni" dedi Prezidentimiz, "ma'rifatga, yoshlarning ma'naviy va ahloqiy tarbiyasiga qaratish, ularda bilim va o'z ustida

ishlashga intilishni shakllantirish, oilalar ma'naviy muhitini barqarorlashtirish muhim deb hisoblaymiz”

## NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Darhaqiqat, hozirgi vaqtida jamiyatimizning taraqqiyotiga, istiqbolli kelajakka iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ichki va tashqi omillarning tahdid solmasligi uchun oilalar mustahkamligini ta'minlash zarur. Chunki, oila ma'naviy ko'rg'on bo'libgina qolmay yosh avlod ta'lim-tarbiyasining ilk maskanidir. Bu boroda bиринчи prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: “Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk xayotiy tushuncha va tasavvurlari bиринчи galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini va dunyokarashini belgilaydigan mezon va qarashlari yaxshilik va ezgulik, olivjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir”

I.A.Karimov, G.K.Ashin, M.Olbrayt, K.Lorens, X.B.Kadirova<sup>1</sup>lar, jamiyatning birligi jipisligini, taminlash uchun ma'lum muhit shakillanishi lozimligini ta'kidlaydilar. Jumladan, ma'naviy-axloqiy, madaniy muhitga alohida diqqat qilish fikrini ilgari suradilar. Oilada ma'naviy-axloqiy muhitda oila a'zolarining o'zaro hurmati, izzat qilinishi, kattayu kichikning qadirlanishi, bir-biriga ishonish va odob doirasidan chiqmaslik xususiyatlari mavjud. Bu qoidalarga xalqimiz asrlar davomida amal qilib kelmoqda. Zero, insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari bиринчи galda oilada shakllanadi. Fransuz faylasufi Anri Bergson ta'kidlaganidek, “ta'qqliash-inson xotirasidagi eng qadimiy hodisa... Bizning ota-onamiz va o'qituvchilarimiz ta'qqliash bilan jamiyatning buyurtmasini bajarishadi”.

Ma'naviy-axloqiy masalada jamiyat buyurtmasi oila a'zolarining ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlariga duchor bo'lmaslididan iborat. Zero, oila bu buyurtmani bajarish uchun ma'naviy burch va majburiyatga ega. Ma'naviy – axloqiy jihatdan esa oila qadriyatlarning saqlanishi va avlodlarga uzatish omili hisoblanadi.

Mahallada ma'naviy-axloqiy muhitda qo'ni-qo'shnichilik, umumiylar birodarlik, jamoaviylik va birdamlik kabi xususiyatlarga ega. Mahalla jaholaiga qarshi birlashishning hosilasidir. Shu sababli mahalla ma'naviy-axloqiy muhitda ijtimoiy axloqiy qoidalari ustuvor xucusiyatga ega.

Azaldan ajdodlarimiz oilani ardoqlab, uning insoniyat ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan urf-odat, udum va an'analarini yuksak qadrlab kelganlar. Sharqda qadim – qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla – yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Bugungi kundagi davlat siyosatining asosiy vazifalarimizdan biri yosh avlodni har tomonlama sog'lom, ma'naviyatli, milliy g'urur egasi, vatanparvar, ota-onasi va jamiyat oldidagi burchni teran tushunadigan sadoqatli, mehnatsevar, bilimdon kishilar qilib tarbiyalashdan iborat. Bu vazifalarni amalga oshirishda mahalla va oila hamkorligi juda muhim. Ma'lumki, oiladagi

<sup>1</sup>Халима Бувабаевна Кадирова. [ХАЛК ПСИХОЛОГИЯСИДА ИДЕНТИКЛИКНИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ](#)// Vol. 2 No. 15 (2023): JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH.Б- 203-208

tarbiya, muhit va ma'naviy holatning ijobiy shakllanishida madaniyat ham muhim o'ringa ega.

O'zbek milliy oilalariga xos bo'lgan muomala madaniyati mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, halollik kabi tuyg'ular, nafaqat tarbiya vazifasini o'taydi, balki insoniy fazilatlarning shakllanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bunda ayniqsa, huquqiy madaniyatni oilada tutgan o'ziga xos xususiyati ijtimoiy-siyosiy sohada o'z ta'siriga ega. Bu ayniqsa, nikoh va oila munosabatlarida ko'rindi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jamiyatimizning ma'naviy jihatdan yuksalishida oiladagi muhit, axloqiy qadriyatlar va diniy qarashlarning o'rni va ahamiyati muhim omil hisoblanadi.

### **XULOSA**

Har bir inson oilada shaxs sifatida shakllanadi, ilk tarbiya va ta'limni aynan oiladan oladi. Shunday ekan, oilaning ta'lim tarbiya salohiyatini mustahkamlash, jamiyatimizda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, oiladagi tarbiyada ajdodlar merosini tadqiq qilish va ulardan xolisona samarali foydalanish, ulardagi bag'rikenglik, tinchlikparvarlik, bunyodkorlik va insonparvarlik g'oyalarining xotin-qizlar va yoshlarimizda yot mafkuralardan ma'naviy immunitet hosil qilishdagi ahamiyatini keng ko'lamda o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. <http://kun.uz/79525564>.2017 йил 9 июнь
2. И.Каримов. “Юксак маънавият-енгилмас куч”. Т. “Маънавият” 2008 . Б.12,13,52
2. Ашин Г.К. Социология политика.-М.:Экзамен,2001
3. Олбрайт М. Религие и мировая политика.- М.:РАКУРУС, 2007
4. Лоренц К. Агрессия (так называемое "зло")-СПб.:Амфора 2001
- 5.Y Kadirova.ENSURING NATIONAL SPIRITUAL SECURITY UNDER GLOBALIZATION//Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B7. – Pp. 1373-1377.
6. A'zamxonov S.X. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari <https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/1106> vol. 2 no. 22 (2022): ijodkor o'qituvchi 381-386-bet
7. Кадирова, Х. Б. (2023). ХАЛҚ ПСИХОЛОГИЯСИДА ИДЕНТИКЛИК НИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(2), 203-208.
8. Kadirova, Y. B. (2023). TA'LIM JARAYONIDA 'QITISHNING INTEGRATIV TEENOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH VA AMALIYOTIDA QO'LLASH. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 541-548.
9. Kadirova, X. B. (2023). YOSHLARNINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA OILALA VA MAHALLALARING RO'LI. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 549-554.

10. Kadirova Ya. B. YOSHLARDA FUKAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI VATANPARVARLIK VA BAYNALMINALLIK TUYG 'ULARINI, RIVOJLANTIRISH//JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-2, ISSUE-15 (28-February) Б.197-202
11. Кадирова, Х. Б. ҚОРАҚАЛПОҚ МИЛЛИЙ ИДИНТИКЛИГИНИ БЕЛГИЛАШДА-МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИНГ МОҲИЯТИ/ Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг Ахборотномаси – №. 4 (41).,Нукус.- 2018.- Б 220-222.
12. Buvabayevna, K. X. (2023). YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATNI SHAKILLANTIRISHDA IJTIMOIY-MA'NAVIY MUXITNING TA'SIRI. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 879-884.
13. Kadyrova, H. (2017). Social and cultural identity of the Karakalpak people. In ROLE OF NONMATERIAL FACTORS IN ENSURING THE SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CONDITION OF A SOCIETY (pp. 69-72).
14. Kadyrova, H. (2016). TRADITIONS OF MORAL EDUCATION IN MODERN FAMILIES KARAKALPAK. SCOPE ACADEMIC HOUSE B&M PUBLISHING, 40.
15. Y Kadirova, K Kadirova SOCIAL ACTIVITY OF PEDAGOGUE IN SOCIO-POLITICAL LIFE OF SOCIETY//Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B3. – Pp. 417-421